| <i>Jo'rayeva Feruza Baxtiyor qizi, Mavlonov Shaxzod Shahobiddin o'g'li</i>                                                                             |         |
| TA'LIMDA KOMMUNIKATIV INNOVATSION VOSITALAR VA ULARNING<br>IMKONIYATLARI .....                                                                         | 519-524 |
| <i>Siddiqova Shahnoza Ahmedovna</i>                                                                                                                    |         |
| SCIENCE XALQARO BAHOLASH TADQIQOTLARINING O'ZBEKİSTONDA BIOLOGIYA<br>O'QITUVCHILARINING TABIIY FANLAR SAVODXONLIGINI<br>SHAKLLANTIRISHGA TA'SIRI ..... | 525-529 |
| <i>Xoliqov Nasriddin Abdikarimovich</i>                                                                                                                |         |
| MILLIY IQTISODIYOT RIVOJLANISHINING SHARTI SIFATIDA TA'LIM, FAN VA BIZNESNING<br>O'ZARO ALOQALARI MAZMUNI .....                                        | 530-534 |
| <i>Javliyeva Shahnoza Bahodirovna</i>                                                                                                                  |         |
| TA'LIM SIFATIGA YO'NALTIRILGAN O'QUV MATERIALLARINI YARATISH MODELI .....                                                                              | 535-539 |
| <i>Jumaboev Nabi Pardaboevich</i>                                                                                                                      |         |
| TA'LIM SIFATIGA YO'NALTIRILGAN O'QUV MATERIALLARINI YARATISH MODELI .....                                                                              | 540-545 |
| <i>Kayumov Erkin Kazakbayevich</i>                                                                                                                     |         |
| THE IMPORTANCE OF FINE ARTS IN SHAPING STUDENTS' PERCEPTION<br>AND CREATIVITY .....                                                                    | 546-550 |
| <i>Khojamqulov Rasulbek Kurban ugli</i>                                                                                                                |         |
| THE NEED TO DEVELOP COMPETENCY OF FUTURE ENGINEERS USING<br>COMPUTER GRAPHICS .....                                                                    | 551-555 |
| <i>Latipova Gavhar Shavkat kizi</i>                                                                                                                    |         |
| TARIX YO'NALISHI TINGLOVCHILARI UCHUN KREATIV SALOHIYATNI RIVOJLANTIRISH<br>DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA .....                                    | 556-564 |
| <i>Ernazarov G'olibjon Ne'matovich</i>                                                                                                                 |         |
| ATROF- MUXITNING YUKORI XARORATIDA MUSHAK FAOLIYATI .....                                                                                              | 565-568 |

**Received:** 31 October 2024

**Accepted:** 5 November 2024

**Published:** 15 November 2024

*Article / Original Paper*

## **FACTORS IN COMBATING POVERTY**

**Kholmirzaev Abdulhamid Khapizovich,**

Senior lecturer, Namangan Engineering and Technology Institute, PhD.

Email: [abdulhamidxolmirzayev1976@gmail.com](mailto:abdulhamidxolmirzayev1976@gmail.com)

**Abstract.** The article presents proposals and recommendations on the concept of poverty, poverty reduction in the national economy, such as education, health care, social protection, entrepreneurship and economic development.

**Key words:** Poverty, poverty reduction, education, health, economic development, social protection, women's entrepreneurship, sustainable development, cooperation.

## **KAMBAG'ALLIKKA QARSHI KURASHISHNING OMILLARI**

**Xolmirzayev Abdulxamid Xapizovich,**

Namangan muhandislik-texnologiya instituti, katta o'qituvchi, PhD.

**Annotatsiya.** Maqolada kambag'allik tushunchasi, milliy iqtisodiyotda kambag'al aholi qatlami qisqartirishning ta'lif, sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya, tadbirkorlik va iqtisodiy rivojlanish kabi muhim yo'naliishlar bo'uicha taklif hamda tavsualar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Kambag'allik, kambag'allikni qisqartirish, ta'lif olish, sog'liqni saqlash, iqtisodiy rivojlanish, ijtimoiy himoya, ayollar tadbirkorligi, barqaror rivojlanish, hamkorlik.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I11Y2024N18>

**Kirish.** Respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni tashkil etish va rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan islohotlar ichki bozorni ist'emol tovarlariga bo'lgan talabini qondirish, yangi ish o'rnlari yaratish, aholi daromadini oshirish, aholini turmush darajasini yaxshilishga qaratilgan. Mamlakat aholisini turmush darjasini albatta ularni oladigan daromadlariga bevosita bog'liq bo'lib, kichik biznes bo'yicha olib borilayotgan islohotlar o'z navbatida aholini daromadini oshishi hamda kambag'allikni qisqarishiga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Kambag'allik – inson yoki oilaning zarur va muhim ehtiyojlarini qondirishga imkon bermaydigan muhtojlik alomati bo'lib, hayotiy shart-sharoitlar, vositalar yetishmasligini anglatadi. Kambag'allik zamонавија jamiatning eng keskin ijtimoiy muammolaridan biri hisobланади. Kambag'allik insoniyat tarixida iqtisodiy hodisa sifatida azaldan bo'lib kelgan. Mavjud nazariy tushunchalar orqali kambag'allik iqtisodiy kategoriya sifatida turlichayaholanganadi. Kambag'allik shaxs yoki ijtimoiy guruh iqtisodiy holatining o'ziga xos xususiyati bo'lib, insonning hayot kechirishi, mehnat qobiliyatini saqlab qolish va nasl berishda zarur

bo'lgan minimal ehtiyojlarning ma'lum bir doirasini qondira olmaslikni anglatadi. Shuning uchun kambag'allik jamiyat va iqtisodiyotda bir qator salbiy jarayonlarni yuzaga keltiradi.

Mamlakatdagi iqtisodiy islohotlar iqtisodiy o'sishni quvvatlash, makroiqtisodiy muvozanatga erishish, investitsiya jarayonlari barqaror rivojlantirish bo'lsa, ijtimoiy maqsadlar birinchi o'rinda aholi bandligi, aholi daromadlari oshirilishi va kambag'allik qisqartirish hisoblanadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Kambag'allik muammolarini hal etishga qadimdan sotsiologlar, iqtisodchi va faylasuflar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar tufayli bebahohissa qo'shib kelingan. Dastlab qadimgi faylasuflar: Konfutsiy, Ksenofon, Platon, Aristotel asarlarida daromadlarni notejis taqsimlash muammosi o'rganilgan. Ular jamiyatda barqarorlikni saqlash uchun sinflarga bo'linish va imtiyozlarni taqsimlashda adolat tamoyiliga asoslanish kerak, degan fikrni bildirdilar[1]. Fransuz olimi P.J. Prudon (1809-1865) tomonidan kambag'allik haqida qiziqarli fikrlar bildirilgan. Uning fikricha, kambag'allik, ijtimoiy ne'mat edi. P.J. Prudon kambag'allikning ikki turini ajratib ko'rsatdi. U birinchisini qiyosiy yoki nisbiy, ikkinchisini esa mutlaq deb hisoblagan. Nisbiy kambag'allik ishlab chiqarish va iste'molning kengayishi natijasidir[2]. U faqat mehnat unumdarligining doimiy oshishigina kambag'allikni yengish uchun haqiqiy istiqbollarni ochadi, deb hisoblagan. Xususan, Ch.But va S.Rauntri asarlari kambag'allik haqidagi bilimlar bo'yicha akademik tadqiqotlar uchun asos yaratdi va ko'plab mamlakatlar siyosatiga bevosita ta'sir ko'rsatdi. Kambag'allikning asosini shaxsning ijtimoiy hayotga munosabati, ya'ni kiyim-kechak, oziqovqat, uy-joy kabi eng asosiy ehtiyojlarini qondirish edi[3]. Ch.But kambag'allarni oila uchun haftasiga muntazam daromadga ega bo'lgan va yetarli deb hisoblangan odamlar deb atagan. Kimning haftalik daromadi belgilanganidan kam bo'lsa, Ch.Butning so'zlariga ko'ra, bu toifadagi kishilar juda kambag'allarga tegishli edi. Ch.But nuqtai nazaridan, "kambag'allar – bu ma'lum bir mamlakatda odatiy hayot standartlariga muvofiq ehtiyojlar qondirilmaganlar"dir[4]. Fransuz iqtisodchisi F. Le Pley kambag'allikning mutlaq mezoni sifatida oila byudjeti asosida hisoblangan kambag'allikni oldi. Faqatgina insonning jismoniy yashashi uchun zarur narsa hisobga olindi, shuning uchun xarajatlarning katta qismi oziq-ovqatga to'g'ri keldi. Shunga ko'ra, mos ravishda ta'lim va turli ijtimoiy ehtiyojlar uchun xarajatlar oila byudjetidagi xarajatlarning eng kichik qismini egalladi. Neoliberalizm tarafdori F. fon Xayek «kambag'allik»ni o'rganar ekan, insoniyat jamiyatini uchun bu hodisa muqarrar, shuning uchun u jamoat manfaati uchun foydali bo'lishi kerak, deb ta'kidladi. F. fon Xayek boshqa o'tmishdoshlar singari davlat ta'sirini cheklovchi chora-tadbirlar orqali ko'rib chiqdi va shaxsning tashqi omillar ta'sirida qashshoqlikka uchrashi mumkinligini hisobga olmagan holda qashshoqligi uchun shaxsni javobgarlikka tortdi [5].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqotning metodologik asosi kambag'allikni qisqartirishning muhim yo'nalishlari orqali kambag'allik darajasini kamaytirish va aholi daromadlari samaradorligini oshirish. Tahlil jarayonida taqqoslash, tizimli tahlil usullaridan foydalanilgan.

**Tahlil va natijalar.** Har bir mamlakatda kambag'allikni bartaraf etish murakkab masala bo'lib, uni ijobjiy yechimini topish uchun kompleks yondashuv talab etiladi. O'zbekiston sharoitida qambag'allikni qisqartirish va uni bartaraf etish maqsadida chora-tadbirlar qo'llanilar ekan, unga qarshi kurashishning eng ustuvor bo'lgan muhim strategiyalarini ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Ushbu strategik ahamiyatga ega bo'lgan yondashuvlar quyidagilardan iborat deb hisoblaymiz:

Birinchisi ta'lif olish: Ta'lif olish jamiyatdagi savodxonlikni oshiradi va aholining bilimli bo'lishini ta'minlaydi. Ta'lif yosh avlod uchun ham, kattalar uchun ham taraqqiyotning kuchli omili hamda kambag'allikni qisqartirish va sog'liqni saqlash, gender tengligi, tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash sohalaridagi ko'rsatkichlarni yaxshilashning eng kuchli vositalaridan biridir. O'z navbatida ta'lif olish kambag'allikni kamaytirish bilan birga jamiyatning sifatini oshirishga xizmat qiladigan sohadir. Ta'lif odamlarga o'z hayotini yaxshilash va daromad olish salohiyatini oshirish uchun zarur bo'lgan ko'nikma va bilimlarni egallash imkonini beradi.

Kambag'allik bu – iqtisodiyotni rivojiga salbiy ta'sir etuvchi va jamiyatning yuksalishiga to'sqinlik qiluvchi illatdir. Undan asralish va uni bartaraf etishning muhim omillaridan biri ta'lif va ilm olishdir. Eng rivojlangan mamlakatlar tajribasida kambag'allikni qisqartirish va tenglikni ta'minlashga ko'maklashuvchi omillar orasida ta'lif sohasiga alohida e'tibor qaratiladi. Demak, inson faqat ilm olish orqaligina qashshoqlikdan qutulish uchun najot topadi. Ma'lumot darajasi yuqoriqododamlearning ish topish imkoniyati ko'proq bo'ladi.

Imom Buxoriy so'zlaridan birida "Ilmdan boshqa najot yo'q va bo'lmagay!"[6], – deganlar. Dunyoviy qarashda ham, diniy yondashuvda ham, insonga ilmdan ko'ra ko'proq foyda keltiradigan narsa yo'q. Ayniqsa iqtisodiy ta'limga ega bo'lish bozor iqtisodiyoti sharoitlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Demak ta'lif olish – kambag'allikka qarshi kurashishining eng muhim strategiyalaridan hisoblanib, hozirgi vaqtda qashshoqlikda yashayotgan odamlarning hayot sifatini yaxshilashning eng zaruriy chora-tadbirlaridan hisoblanadi. Savodi bor shaxslar iqtisodiy jihatdan samaraliroq ko'rindilar va shuning uchun daromadlari ham yuqoriqodir.

Ta'lif olishni ayollar o'rtasida amalga oshirish shu kundagi dolzarb masalalardan hisoblanadi. "Ayollarning ta'lif olishi yaxshilansa, bolalar o'limi kamayishi isbotlangan. Sababi bilimli ayollar tibbiy yordamga ko'proq murojaat qiladi va o'zlar hamda farzandlarining salomatligini asrash usullari haqida yaxshiroq ma'lumotga ega" [7].

Xususan, so'nggi yillarda O'zbekistonda maktabgacha va oliy ta'lif qamrovi qariyb ikki barobarga oshdi. Ushbu sohada maktabgacha ta'lif qamrovini 2026 yilda 80 foizgacha (hozirgi vaqtda 69%) va oliy ta'lifni 50% (28%)ga oshirish ko'zda tutilmoqda[8].

Jamiyatning ijtimoiy tarkibi – jamiyat tarkibida oliy ma'lumotga ega bo'lgan fuqarolarning, jumladan malakaga ega bo'lgan mutaxassislarining ko'payishi, iste'molchilarining sifatlari, yangi turdag'i mahsulotlarga bo'lgan talablarining ortishida o'z aksini topadi. Tahlil natijalariga ko'ra, ta'lif sohasiga byudjetdan yetarli miqdorda mablag' ajratilishi, shubhasiz, mamlakatda kambag'allikni qisqartirish vositasi bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Ikkinchisi sog'liqni saqlash: Arzon tibbiy xizmatdan foydalanishni yo'lga qo'yish, davolanish natijalarining yaxshilanishi va tibbiy xarajatlarning moliyaviy yukini kamaytirish choralar bugungi kunda juda muhim vazifalardan hisoblanadi. Sog'liqni saqlash tizimini mustahkamlash (yangi shifoxonalar qurish, koykalar sonini ko'paytirish, yangi tibbiy asbob-uskunalar, dori-darmonlar va vaksinalarni sotib olish, tibbiy xodimlarni rag'batlantirish va boshqalar) jamiyatning turli tabaqalariga mansub shaxslarning hayotini barqarorlashuvida zarur soha hisoblanadi. Ayniqsa, kambag'allikni bartaraf etish jabhalarida tibbiyotni rivojlantirish masalalari muhim ahamiyatga ega. Chunki kambag'allikdan faqat o'sha qatlamga mansub odamlar jabr chekadi, deyish yanglish tushuncha. Bu nafaqat aholi, balki davlatning ham katta dardi va hatto, aytish mumkinki, fojasidir. Bu holat xalqning sog'lig'i, mehnatga layoqati va ilmiy salohiyatiga putur yetkazadi. Shuningdek, uning oqibati Davlat byudjetining

pasayishi va siyosiy jarayonlarning keskinlashishiga sabab bo'ladi. Chunki kambag'al toifa jadal iqtisodiy o'sishdan foyda ko'ra olmaydi. Jamiyatning turli sohalarida ishtirok etish imkoniyati ham cheklangan. Davlat esa bepul o'rta ta'limni ta'minlash, tibbiy xizmatlarni asosiy paketini kafolatlash, ijtimoiy zaif, deb tasniflangan guruhlarga ixtisoslashgan yordam va kam ta'minlangan oilalarga imtiyozlar berishga majbur.

Uchinchisi iqtisodiy rivojlanish: Ish o'rirlarini yaratish va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish kambag'allikni kamaytirishga yordam beradi. Bunga investitsiyalar, tadbirkorlik va ish o'rirlari yaratishni rag'batlantiruvchi siyosat orqali erishish mumkin.

Kambag'allikka qarshi kurashish deganda faqat moddiy jihatdan yetishmovchilikni tushunmaslik kerak. Buning uchun ma'naviy jihatdan ham ustunlikka erishish kerak. Shundagina iqtisodiy rivojlanishga erishish mumkin. Iqtisodiy rivojlanish malakaning yetarliligi va sog'lom turmush tarzini yuritish bilan ham ifodolanadi. Chunki, bular ham daromad topish va iqtisodiy rivojlanishga imkoniyat yaratadi.

To'rtinchisi ijtimoiy himoya: Davlat tomonidan amalga oshiriladigan ijtimoiy himoya tizimi ikkita asosiy vazifani bajaradi:

- ijtimoiy to'lovlar vazifasi;
- ijtimoiy xizmatlar vazifasi.

Ijtimoiy to'lovlar asosan aholining eng kam ta'minlangan qismigagina taqdim etiladi. Aholining kam ta'minlangan qismi deyilganda, zarur bo'lgan iste'mol andozalariga eng kam ega bo'lgan jamiyat a'zolari tushuniladi [9].

Ma'lumki, mamlakatimizda doim ijtimoiy himoya asosida o'rta ta'limni bepul ta'minlab kelingan. Qolaversa, davlat tomonidan tibbiy xizmatlarning asosiy paketi kafolatlanmoqda, «ijtimoiy ahamiyatlari va xavfli» sharoitlar uchun parvarish zaif deb tasniflangan guruhlarga ixtisoslashgan yordam va kam ta'minlangan oilalarga imtiyozlar berib borilmoqda. Ammo, bundan-da ko'pi amalga oshirilishi lozim. Pul o'tkazmalari, oziq-ovqat subsidiyalari va tibbiy sug'urta kabi ijtimoiy himoya dasturlarini amalga oshirish qashshoqlikda yashayotganlarni ijtimoiy himoya qilishga yordam beradi. Masalan, pandemiya davrida undan zarar ko'rgan aholi davlat yordami bilan tobora keng qamrab olindi. Jumladan, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar manzilli nazoratga olindi. Bu davrda ijtimoiy himoya tizimida yangi tajribalarga erishildi.

Xususan, Koronavirus pandemiyasi davrida aholi, iqtisodiyot tarmoqlari va tadbirkorlik sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash choralari jiddiy ko'rilib, milliy iqtisodiyot tarmoqlarida iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash choralari ko'rildi [10].

Beshinchisi ayollar va marginallashgan guruh vakillari imkoniyatlarini kengaytirish: Ayollar va marginallashgan guruh vakillari ko'pincha ta'lim va ish bilan ta'minlashda qo'shimcha to'siqlarga duch kelishadi. Ushbu guruhlarga ta'lim olish va iqtisodiy imkoniyatlar yaratish orqali qashshoqlikni kamaytirishga erishish mumkin bo'ladi.

Jahon iqtisodiyotida ayollar tadbirkorligi muhim dinamik kuch sifatida namoyon bo'lmoqda. Dunyodagi "biznes egalari orasida ayollar ulushi eng ko'p mamlakatlar Uganda 38,2%ni, Gana 37,9%ni, Botswana 36%ni, Buyuk Britaniya 35,1%ni, Yangi Zelandiya 31,8%ni va Rossiya Federatsiyasi 31,2%ni" [11] tashkil etadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, "dunyodagi yangi biznes tuzilmalarning 25 foizdan ko'prog'i ayollar tomonidan yaratilgan. Fransiya va Buyuk Britaniyadagi barcha firmalarning chorak qismi hamda Germaniya firmalarining uchdan bir qismini ayollar boshqaradi. Yaponiyada bu ko'rsatkich 23%, AQShda esa 38%ni tashkil etadi" [12].

O'zbekistonda ham so'nggi yillarda ayollar tadbirkorligining milliy iqtisodiyot tarmoqlarini qayta qurishda iqtisodiy o'sishni rag'batlantiruvchi kuch sifatidagi roli oshib bormoqda. Ushbu soha mamlakatning iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlarini jadallahuvini rag'batlantiruvchi iqtisodiyotni yangi shakllanib kelayotgan dinamik kuchi sifatida namoyon bo'ladi. Iqtisodiy rivojlanish trendlariga erishishda yangi dinamik o'sish nuqtalariga erishishni ta'minlovchi kuch hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda milliy iqtisodiyotda inson resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirib, ishsizlik darajasini kamaytiradi va aholi turmush farovonligi darajasining barqaror ravishda rivojlanishi uchun zamin yaratadi. Natijada mamlakatda uzoq muddatli davrda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga erishiladi. Ayollarning tadbirkorlik bilan shug'ullanishi milliy iqtisodiyot samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Xususan, XXI asrning boshlaridan bugungi kunga qadar jahonda ayollar tadbirkorligini rivojlantirish borasida amalga oshirilgan islohotlar natijasida aksariyat mamlakatlarda amalga oshirilayotgan makroiqtisodiy siyosatda iqtisodiy sub'ektlarning, ayniqsa ayol tadbirkorlar vakillarining innovatsion faoliyatlarini kengaytirishga qaratilgan maqsadli dasturlari ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq etila boshlandi. Pirovard natijada ayollar tadbirkorligi faoliyati zamонави iqtisodiyotni barqaror rivojlantiruvchi omil sifatida qarala boshlandi. Amalga oshirilgan tadqiqotlar natijalariga tayangan holda aytish mumkinki, ayollar tadbirkorligi mamlakat iqtisodiyotida bir qator omillar bilan uzviy bog'liqlikda rivojlanib bormoqda.

Oltinchisi barqaror rivojlanish: Iqlim o'zgarishi va o'rmonlarni yo'q qilish (kesish) kabi ekologik muammolarni oldini qilish kelajak avlodlar uchun resurslar mavjudligini ta'minlashga yordam beradi. Hukumat tomonidan ishlab chiqarish resurslaridan unumli foydalanishni yo'lga qo'yish bilan bir qatorda, qashshoqlikning asosiy sabablarini hal qilishga yo'naltirilgan choratadbirlarni qo'rib borish maqsadga muvofikdir. Hamma uchun asosiy ehtiyojlarni ta'minlashga va kambag'allarning ishlab chiqarish resurslaridan, shu jumladan kredit, ta'lim va tarbiyadan foydalanishni ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu o'rinda 2015 yilda O'zbekiston BMT tashabbusi bilan ishlab chiqilgan 2030 yilgacha Barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirishini o'z zimmasiga olganligini ta'kidlash lozim. Ushbu maqsadlarga erishish, shubhasiz, iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi, bu esa, o'z navbatida, mamlakatdagi kambag'allik darajasini bosqichma-bosqich kamaytirishga olib keladi. Umuman olganda, so'nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning aksariyati asosan barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga xizmat qilmoqda.

Yettinchisi hamkorlik: Qashshoqlikka qarshi kurash hukumatlar, nodavlat tashkilotlar, korxonalar va jismoniy shaxslar o'rtasidagi hamkorlikni talab qiladi. Chunki kambag'allik ko'plab mamlakatlar va mintaqalarga ta'sir ko'rsatadigan global muammodir, ya'ni, bu bir davlat yoki jamiyat bilan chegaralanib qolmaydi. Hamkorlik dunyo miyosida qashshoqlikka qarshi samarali kurashish uchun turli mamlakatlar va tashkilotlarning sa'y-harakatlari va resurslarini birlashtirish imkonini beradi. Shuningdek, hamkorlik mamlakatlar va tashkilotlarga kambag'allikka qarshi kurashda tajriba va ilg'or tajriba almashish imkonini beradi. Ular bir-biridan qanday dasturlar, siyosat va yondashuvlar eng yaxshi ishlashini o'rganishlari va ularni o'z hududlarida qo'llashlari mumkin.

Kambag'allikka qarshi kurashishda hamkorlikning ahamiyati shundaki, u samarali kurashish uchun resurslarni, jumladan, moliyalashtirish, texnik ekspertiza va moddiy resurslarni birlashtirish imkonini beradi. Bu mavjud mablag'lardan samaraliroq foydalanish va katta ta'sir ko'rsatish imkonini beradi. Hamkorlikni amalga oshirish ushbu o'zaro aloqadagi ob'ekt va sub'ektlardan samarali va unumli foydalanish tizimini yaratishga va uni uzlusiz ishlashini ta'minlashga erishish demakdir.

O'zaro bog'liqlik va o'zaro manfaatlar hamkorlikni yanada oshiradi. Chunki kambag'allikka qarshi kurash barcha ishtirokchilar uchun o'zaro manfaatlidir. Xatto davlatlararo hamkorlikda ham kambag'allikka qarshi kurashda hamkorlik siyosiy darajada qo'llab-quvvatlanishi mumkin. Xalqaro tashkilotlar, hukumatlar va boshqa manfaatdor tomonlar kambag'allikka qarshi kurashishning birgalikdagi yechimlarini topishga intiladi. Bir mamlakatda iqtisodiy vaziyat va ijtimoiy farovonlikni yaxshilash jahon iqtisodiyotini mustahkamlash, ijtimoiy keskinlikni pasaytirish va xalqaro barqarorlikni yaxshilashga yordam beradi. Hamkorlik umumiy maqsadlarga erishish uchun tajriba almashish, bilim va resurslarni uzatish imkonini beradi.

Hamkorlikadolat va inson qadr-qimmatini, ya'ni, kambag'allikka qarshi kurash adolat va inson qadr-qimmatini himoya qilish tamoyillariga asoslanadi. Hamma odamlar munosib turmush darjasini, ochlikdan ozod bo'lish, ta'lim, sog'liqni saqlash va boshqa asosiy xizmatlardan foydalanish huquqiga ega. Hamkorlikadolatli shart-sharoitlarni yaratadi, shunda barcha odamlar qashshoqlikni yengish va o'z salohiyatiga erishish uchun teng imkoniyatlarga ega.

So'nggi yillarda mamlakatimizda inson qadrini himoya qilish sohasida davlat organlari bilan nodavlat notijorat tashkilotlari o'rtasida rivojlanayotgan ijtimoiy hamkorlik munosabatlari Yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lida boshlangan shiddatli va izchil islohotlarning asosiy maqsadlari bilan mushtarak hamda hamohangdir. Xususan, aholi tarkibida tadbirdorlik salohiyatini ro'yobga chiqarishga xizmat qiladigan sharoitlar yaratish, strategik, ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal etish, davlat tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash kabi sohalarda ehtiyoj kuchli ekanligi barchamizga ma'lum. Bu o'rinda nodavlat-notijorat tashkilotlarining faoliyati ham muhim va ular faoliyatining huquqiy asoslarini mustahkamlash, davlat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasida konstruktiv muloqot o'rnatish masalalariga e'tibor talab etiladi. Bularning barchasi kam ta'minlangan odamlar uchun imkoniyatlar yaratadi.

Hamkorlik ishtirokchilarni umumiy maqsadlarga erishish yo'lida o'z sa'y-harakatlarini birlashtirish va harakatlarni muvofiqlashtirishga olib keladi. Hamkorlikdagi yondashuv orqali har bir ishtirokchining individual harakatlaridan ko'ra muhimroq natijalarga olib keladigan sinergiya yaratilishi mumkin.

Hamkorlik kambag'allikka qarshi kurashishga qaratilgan dastur va loyihalarni birgalikda baholash, monitoring qilish va baholash imkonini berib, dasturlar va loyihalar samaradorligini oshiradi. Bu eng yaxshi amaliyotlarni aniqlash, yondashuvlarni o'zgartirish va aralashuvlar samaradorligini oshirishga yordam beradi.

**Xulosa va takliflar.** Shuni ta'kidlash kerakki, kambag'allikni qisqartirish va bartaraf etish uzoq muddatli jarayondir. Buning uchun doimiy harakatlar va investitsiyalar talab qilinadi. Ushbu strategiyalar barcha sharoitlarda qo'llanilmasligi mumkin. Shuningdek, bu strategiyalarni mahalliy muhit sharoitiga moslashtirish zaruriyati ham kelib chiqishi mumkin.

Xususan, O'zbekistonda kambag'allikni kamaytirishga qaratilgan quyidagi strategiya va dasturlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

1. O'zbekistonda qashshoqlikni kamaytirish va aholi farovonligini oshirish chora-tadbirlarini o'z ichiga olgan milliy rivojlanish strategiyasi ishlab chiqish va amalga oshirish zarur. Strategiya iqtisodiy islohotlarni rag'batlantirish, xususiy sektorni rivojlantirish, yangi ish o'rnlari yaratish va asosiy xizmatlardan foydalanish imkonini beradi.

2. "Mahalliy jamiyat va milliy iqtisodiyot" dasturini ishlab chiqish lozim. Bu dastur mahalliy hamjamiyatlarni rivojlantirish va mahalliy darajada tadbirkorlikni rag'batlantirishga qaratilgan bo'lib, joylarda ish o'rnlari tashkil etish, qishloq xo'jaligini rivojlantirish, mikrokreditlar berish va tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish ko'zda tutiladi.

3. "Ijtimoiy himoya va faol ijtimoiy xizmatlar" dasturini joriy etish maqsadga muvofiqdir. Mazkur dastur aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlariga ijtimoiy himoya va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishni yaxshilashga qaratiladi. U ijtimoiy nafaqalar, tibbiy yordam, ta'lif va boshqa ijtimoiy xizmatlar ko'rsatadi.

4. "Xalqaro sarmoyalalar va investitsiyalarni jalb etish" dasturini ishlab chiqish zarur. Ushbu dastur xorijiy sarmoyalarni jalb qilish va tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishga qaratiladi. Bu yangi ish o'rnlari yaratish, texnologik taraqqiyot va mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

5. "Inklyuziv ta'lif va bandlik" dasturini ishlab chiqish va qo'llash. Ushbu dasturning maqsadi barcha fuqarolar uchun ta'lif va ish bilan ta'minlashda teng imkoniyatlarni ta'minlashdan iborat bo'ladi. Dastur doirasida nogironligi bo'lgan shaxslarni mehnatga tayyorlash va moslashtirish bo'yicha maxsus ta'lif dasturlari ishlab chiqilib, tadbirlar amalga oshiriladi.

O'zbekistonda aholi farovonligi darajasini oshirish strategik jihatdan ahamiyatga ega bo'lib, kambag'allikni qisqartirish, kambag'al oilalar sonining o'sishini oldini olish uchun samarali mexanizmlarni yaratish masalalarini hal qilish muhimdir.

### **Адабиётлар/Литература/References:**

1. Беглова Е.И. Бедность ка социально-экономическое явление. Автореф. дисс. на соискан. ученой степени докт. экон. наук, 2014. С. 11.
2. Прудон, П.-Ж. Бедность как экономический принцип: пер. с фр. / П.-Ж. Прудон. – М.: Посредник, 1908. – 29 с.
3. Шугаева И.В. Методологические аспекты феномена бедности в современном обществе. // Электронное научное издание
4. Boot Ch. Life and London of the people in London [Electronic resource] / Ch. Boot. – URL: <https://archive.org/details/lifelabourofpeop07bootiala>.
5. Хайек, Ф. А. фон, Дорога к рабству : пер. с англ. / Ф. А. Хайек. – М.: Экономика, 1992. – 176 с.
6. <https://sof.uz/post/pmti-talimga-sarflanadigan-xarajat-1-foizga-orts-a-kambagallik-003-foizga-qisqaradi>
7. офе А.Н, Жуков А.Л. Теоретические основы экономики и социологии труда. –М.: МИК, 1999, С.45.
8. Xusanova Z.R. Innovatsion iqtisodiyotda ayollar tadbirkorligini boshqarish mexanizmini takomillashtirish. Iqt. Fanlari bo'yicha f.d. (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Andijon, 2021. 3 bet.

9. Солдатова, Галина Уртамбековна, Людмила Анатольевна Шайгерова, and Елена Ивановна Шлягина. "Нарушения этнической идентификации у русских мигрантов." Социологический журнал 3 (1994): 150-156.
10. Стефаненко, А. П. "Экономические причины международной миграции." (2022).
11. Abdullayev, Aziz Xamidulloyevich. "Mehnat migratsiyasi: sabab va oqibatlari." Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 2, no. 10 (2022): 907-919.
12. Рахманов, Ш. Н., and А. А. Отажонов. "Правовое регулирование процессов трудовой миграции в Республике Узбекистан." Экономика 6, no. 3 (2022).
13. Nosirova, M. "Migratsiya muammolari va uning sotsiologik talqini." Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 3, no. 1-2 (2023): 71-76.
14. Razakova Farangiz. "Migratsiya bo'yicha xalqaro me'yoriy-huquqiy baza." Инновационные исследования в современном мире: теория и практика 2, no. 19 (2023): 78-86.
15. Simonova, Marina V., Larisa A. Ilyukhina, Irina V. Bogatyreva, S. G. Vagin, and K. S. Nikolaeva. "Conceptual approaches to forecast recruitment needs at the regional level." International Review of management and Marketing 6, no. 5 (2016): 265-273.
16. Moretti, E. (2010). Local labor markets (No. w15947). National Bureau of Economic Research.
17. Sugiarto, H. S., Lim, E. P., & Sim, N. L. (2019, October). On analysing supply and demand in labor markets: Framework, model and system. In 2019 IEEE International Conference on Data Science and Advanced Analytics (DSAA) (pp. 511-520). IEEE.
18. Antczak, Elżbieta, Ewa Gałecka-Burdziak, and Robert Pater. "What affects efficiency in labour market matching at different territorial aggregation levels in Poland?" Bulletin of Economic Research 71, no. 2 (2019): 160-179.
19. Trenovski, Borce, Vesna Garvanlieva Andonova, Marjan Nikolov, Gabriela Dimovska, and Igor Mitevski. "Labor market supply vs. Demand characteristics in the northeastern planning region of Macedonia." CEA Journal of Economics 11, no. 1 (2016).
20. Huber, Peter, Herbert Brücker, Janos Köllö, J. Traistaru, and Tomasz Mickiewicz. "Regional and labour market development in candidate countries: a literature survey." (2002).
21. Allen, Emma R. "Analysis of trends and challenges in the Indonesian labor market." (2016).

**SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

**N<sup>o</sup> 11 (4) - 2024**

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг  
долзарб муаммолари**" электрон  
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-  
сонли гувоҳнома билан давлат  
рўйхатига олинган.

**Муассис:** "SCIENCEPROBLEMS TEAM"  
масьулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой  
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-  
уй. Электрон манзил:  
[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**  
(99) 602-09-84 (telegram).